



OZON QATLAMINING YEMIRILISHIDAGI QATOR MULOHAZALAR TAHLILI, YECHIMI, YUTUQ VA KAMCHILIGI

Xayriniso Jo'rayeva Shavkat qizi

Samarqand Davlat Chet Tillar Instituti

Xalqaro jurnalistika yo'nalishi talabasi

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.7726801>

ARTICLE INFO

Received: 03rd March 2023

Accepted: 12th March 2023

Online: 13th March 2023

KEY WORDS

Ozon qatlami, stratasfera, Antarktidadagi yemirilish, Monreal protokoli, qobiqning xavfi, sanoat fojiasi, konsensus, BMT, CFC tashkilotlari.

ABSTRACT

Maqola davomida ozon qatlamining yemirilish sababi, yemirilishdagi muommolarga olimlarning fikrlari, ozon teshigini yopishdagi say harakatlar va uni tiklash, xalqaro olimlarning katta izlanishlari, yechim va natijalarini va havoni tozalash bo'yicha qator mulohazalarning guvohi bo'lishingiz mumkin va bu maqolada ko'rib chiqib, o'rganilgan qator mulohazalar ozon qatlamining yemirilishidagi kamchilikni yopishga taqdim etilgan.

KIRISH

Bugungi kunda tabiatga har tomonlama kuzatilayotgan xavf xatarning guvohi bo'lamiz va bu xatarlarning ko'pi atrofda keladigan xatarlardir. Ana shunday xavflar sirasiga sunamilar, yer silkinishlari (zilzila), suv va vulqon toshqinlari, ozon qatlamining yemirilishini va havoning ifloslanishini kiritish mumkin. Albatta bunday xavflar insonlar uchun balki butun tirik mavjudotlar uchun xavf xatarga aylandi desak mubolag'a bo'lmaydi. Bunday xatarlardan biri sifatida ozon qatlamini oladigan bo'lsak, undan kuzatilayotgan yomon hodisalar, jumladan, ozon qatlamining teshilishi orqali havo haroratining keskin ko'tarilishi, havoning ifloslanishi va quyoshdab tushadigan zararli radiaktiv nurlarning tirik jonzotlarga va insoniyatga beradigan katta zararlari anchaginani tashkil qiladi va bunday zararlar albatta insoniyatga katta xavfdir. Shu yemirilishning oldini olish uchun yurtimizda balki butun dunyoda juda ko'plab yechimlar ko'rib chiqilmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI

Ozon teshigi bo'yicha ilmiy konsensus ba'zi mamlakatlarni bir tomonlama choralar ko'rishga olib keldi va 1987 yilda jami 46 davlat ozonni yemiruvchi moddalar ishlab chiqarishni bosqichma-bosqich to'xtatishga qaratilgan. Monreal protokolini imzoladi. Biroq, sanoat hali ham bu loyihadan voz kechmadi; 1988 yilda DuPont prezidenti Richard Xekkert AQSh Senatiga shunday deb yozgan edi: "Hozirgi vaqtda ilmiy dalillar CFC emissiyasini keskin kamaytirish zarurligini ko'rsatmaydi. Har qanday kuzatilgan ozon o'zgarishiga CFClarning hissasi haqida hech qanday o'lchov mavjud emas. 1989 yildan beri amalda bo'lgan Monreal protokoli ko'pincha tarixdagi eng muvaffaqiyatli xalqaro ekologik bitim sifatida qabul qilinadi. Aslida, Birlashgan Millatlar Tashkilotiga ko'ra, bugungi kunga qadar bu sayyoradagi barcha



davlatlar, barcha 197 a'zo davlat tomonidan ratifikatsiya qilingan yagona BMT shartnomasidir. [1]

1985 yilda hukumatlar ozon qatlamini himoya qilish to'g'risidagi Vena konventsiyasini qabul qildilar, bu esa ozonni yemiruvchi moddalarni, jumladan, xlorftoruglerodlarni (CFC) bosqichma-bosqich olib tashlash bo'yicha Monreal protokoli uchun asos yaratdi. Protokol 1989-yilda kuchga kirdi va 2008-yilga kelib u dunyodagi har bir davlat tomonidan ratifikatsiya qilingan birinchi va yagona BMTning ekologik bitimi bo'ldi. [2]1993-yildan O'zbekiston "Monreal protokoli"ning a'zosi hisoblanadi.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Atrof-muhit bo'yicha dasturi ijrochi kotibi Meg Seki, "Uch tomonlama sayyoraviy inqiroz – iqlim, tabiat va ifloslanish sharoitida Monreal protokoli ko'p tomonlama munosabatlarning ijobiy va kuchli natijasiga biz ega bo'lgan eng yaxshi misollardan biridir" dedi. UNEP Ozon kotibiyati. "Agar ilm-fan umuminsoniy harakatlar uchun asos bo'lsa, biz yengib bo'lmaydigan global ekologik muammolarni engib o'tishimiz mumkin." [3]

"Ozon teshigining so'nggi ikki fasli ozon teshigining yildanyilga o'zgaruvchanligini namoyish etadi va uning shakllanishi, darajasi va zo'ravonligi uchun javobgar bo'lgan omillarni tushunishimizni yaxshilaydi",- dedi Oksana Tarasova, WMO Atmosfera muhitini o'rganish bo'limi rahbari. WMO Global Atmosphere Watch monitoring stantsiyalari tarmog'i. "Bizga ozonni yemiruvchi kimyoviy moddalar bo'yicha Monreal protokolini bajarish uchun xalqaro harakatlar davom etishi kerak. Atmosferada ozon qatlamini yemiruvchi moddalar hali ham har yili ozon qatlamining yemirilishiga sabab bo'lishi uchun yetarli", - deydi doktor Tarasova. [4]

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Ozon qatlami, sayyoramizning himoya soyaboni kabi, barcha tirik mavjudotlar uchun qalqon bo'lib, quyoshning ultrabinafsha nurlarining Yer yuzasiga zarar yetkazishidan saqlaydi va shu bilan sayyoradagi hayotni saqlab qoladi. Ozonning katta qismi stratosferada, yer yuzidan 10-50 km balandlikda joylashgan.1987 yil 16 sentyabrda, BMT Bosh Assambleyasida ozon qatlamini buzuvchi moddalar bo'yicha Monreal bayonnomasi imzolandi. Bu sana, 1994 yilda, Bosh Assambleya tomonidan «Xalqaro ozon qatlamini muhofaza qilish kuni» deb e'lon qilindi.

1995 yildan buyon bu ekologik bayram butun dunyo hamjamiyati tomonidan nishonlanib kelinmoqda va an'anaviy ravishda bu kun mamlakatlar miqyosida ham, Yerning har bir aholisi darajasida ham ozon qatlamini himoya qilishga va saqlashga qaratilgan aniq harakatlar bo'yicha xabardorlikni oshirishga bag'ishlangan.O'zbekiston Monreal bayonnomasiga 1993 yili qo'shildi va unga kiritilgan to'rtta tuzatishni ham ratifikatsiya qildi va mamlakatimiz barcha majburiyatlarini bajarib kelmoqda. Monreal bayonnomasi talablarining samarali bajarilishi natijasida respublikamizda ozonni buzuvchi moddalarning 99,95 foizi muomaladan chiqarildi.[5]

Bundan tashqari O'zbekistonda ham ozon qatlamini himoya qilish bo'yicha qator qonunlar ishlab chiqildi.

Ozonni yemiruvchi moddalarni iste'moldan bosqichma-bosqich voz kechishda taraqqiyotni ta'minlash uchun O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Makamasining quyidagi qarorlari qabul qilindi:



- 24.01.2000 yilda 20-sonli "Ozon qatlamini himoya qilish sohasidagi shartnomalar bo'yicha O'zbekiston Respublikasining xalqaro majburiyatlarini bajarish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, uning doirasidagi OEMdan foydalanishni to'xtatish bo'yicha milliy dastur qabul qilindi:
- 14.03.2000 yilda 90-sonli "O'zbekiston Respublikasiga olib kirish va O'zbekiston Respublikasidan olib chiqishni tartibga solish to'g'risida";
- 11.11.2005 yilda 247-sonli "O'zbekiston Respublikasiga olib kirish va O'zbekiston Respublikasidan olib chiqishni tartibga solish va ularni o'z ichiga olgan mahsulotlarni olib chiqishni takomillashtirish to'g'risida".[6]

Qanday qilib ozon qatlamini muhofaza qilish va havoni tozalash mumkin?

Avvalo, ozon qatlamini tiklash uchun olib borilgan qator ishlar yemirilishning kamayishi uchun sezilarli hissa qo'shdi, deya olamiz. Ammo shuni aytish mumkinki, 2019-yil oxiri 2020-yilning boshida boshlangan "Covid 19" nomli epidemiya ozon qatlamining tiklanishi uchun o'z ta'sirini ko'rsatdi. Unda ko'plab sanoat korxonalarini ishlashdan to'xtadi, yo'llarda mashina qatnovlari kamaytirildi va havoga turli xil gaz va tutunlarning chiqarilishi ham kamaytirildi. O'sha yilda oq bulutga o'xshash tutunli girdob bilan qoplangan Shanxay osmoni ham moviy tus oldi. Havoni tozalash va ozon qatlamini tiklashning 4 usulini keltirib o'tmoqchiman.

1. Sanoat rivojlanishidan sekin-asta ekosanoat tizimiga o'tish. Bu shuni anglatadiki, turli xil sanoat korxonalarining o'rniga quyosh va shamol energiyasi olish va mashinalar qatnovida ham shu narsani yo'lga qo'yishdir.

2. Neft, gaz va ko'mir sanoatida ularni ham ekosanoat asosida takomillashtirish, ularning ishlatilishini kamaytirish va bu orqali ozon qatlamining asranib qolinishiga ko'mak berishdan iborat.

3. Chorva mollarini qisqartirish. Chorva mollarini kamaytirish orqali bu masalaning ham yechimi topiladi. Yuqorida aytib o'tkanimizdek, ulardan chiqayotgan ozon qatlamining yemirilishiga sabab bo'layotgan juda kuchli metan gazi hisoblanadi.

4. Hududlarda ko'proq daraxt ekish metodini shakllantirish. Prezidentimiz shuning uchun "Yashil makon" loyihasini ishlab chiqdi va bu borada xalqqa ham buni bajarishni tayinladi. Bu orqali atrof-muhitning tozaligiga va insonlarning salomatligiga ham erisha olamiz. Bir so'z bilan aytadigan bo'lsak, "Yashil makon" loyihasi orqali daraxtlardan chiqayotgan kislorod o'zimiz va atrof-muhit uchun ham foydadan holi emas.

XULOSA

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, bunday ozon qatlamining yemirilishi tufayli bu holat jamiyatdagi turli xavflarni keltirib chiqarmoqda. Yuqorida aytilganidek havoning isishi orqali qurg'oqchilikning turli davlatlarda oshib borishi va bu sababli insonlarning o'zlariga va oziq ovqatning, suvning kamayishiga olib keldi. Yana shuningdek, havoning ifloslanishi orqali o'pka raki ham ko'paydi va keksalar bunday holdan keyin vafot etish darajasi ishdi. Quyoshdan keladigan zararli nurlarning ta'sirida esa teri kasalliklarining turli xili paydo bo'ldi. Shuni aytish mumkinki, bu xavflardan saqlanish uchun har bir inson tabiatga qo'dan kelgancha yordam berishi va bu yordamni ko'paytirishi lozim. Chunki har bir atrofning yomonlashuviga biz odamlar aybdormiz. Shuning uchun tabiatni asrab qolish biz insonlar qo'lidadir.



References:

1. Bbvaopenmind.com
2. Spaceflights, a Scourge for the Climate and Ozone
3. www.unep.org Ozonation
4. www.unep.org Ozone secretariat: Home
5. Public.wmo.intIs the Ozone Layer on the Mend?
6. ([https://public.wmo.int/en/search?f%5B0%5D=field cloud tags%3A323](https://public.wmo.int/en/search?f%5B0%5D=field%20cloud%20tags%3A323))
([https://public.wmo.int/en/search?f%5B0%5D=field type theme%3A55](https://public.wmo.int/en/search?f%5B0%5D=field%20type%3A55)) Bulletin n° : Vol 64
(1) - 2015 ([https://public.wmo.int/en/search?f%5B0%5D=field type bulletin%3A27](https://public.wmo.int/en/search?f%5B0%5D=field%20type%3A27)) By
WMO Secretariat1
7. Meteorologianred.com
8. www.uznature.uz
9. O'zbekiston Respublikasi ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish.